



**HUMAN**  
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

[www.humansciences.uz](http://www.humansciences.uz)

**INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI**  
**JOURNAL OF HUMANITIES**  
**ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**2026**

**2-JILD | 6-SON**

## MUNDARIJA

### TARIX FANLARI

*Sultonov Husan*

XVIII–XIX ASR XORIJIY MANBALARIDA XORAZM SHAHARLARINING TAVSIFI .....6-10

*Egamberganova Zulayxo*

XORAZM O'ZBEKLARI OILAVIY MAROSIMLARINING DINIY VA MILLIY QADRIYATLAR  
ASOSIDAGI ETNOMADANIY TALQINI ..... 11-14

*Rajabova Surayyo*

XORAZM VOHASI ANTIK DAVR XO'JALIK HAYOTINING TARIXIY REKONSTRUKSIYASI  
MASALALARI ..... 15-18

*Ro'zmetov Jahongir*

XORAZM SAVDOGARLARINING O'RTA ASRLARDA DASHT KO'CHMANCHILARI BILAN  
ALOQALARI: ARXEOLGIK VA YOZMA MANBALAR TAHLILI ..... 19-23

*Yuldashev Suhrobjon*

NIKOLAY IVANOVICH VAVILOVNING XORAZM EKSPEDITSIYASI: O'SIMLIK GENETIK  
RESURLARINI O'RGANISH TARIXI VA ILMIY AHAMIYATI ..... 24-33

*Mavlonova Mohinur*

MA'MUNIYLAR DAVRIDA XORAZM IJTIMOY HAYOTI, URF-ODATLARI VA  
MADANIYATI ..... 34-38

*Ozodova Go'zalxon*

ILK O'RTA ASRLARDA XORAZM VA TURK XOQONLIGI MUNOSABATLARI  
TARIXSHUNOSLIGI ..... 39-44

### FILOLOGIYA FANLARI

*Isanova Feruza*

INGLIZ YURIDIK TERMINLARINING O'ZBEK TILIGA O'ZLASHISHI: LEKSIK-SEMANTIK VA  
TIPOLOGIK TAHLIL ..... 45-49

### YURIDIK FANLAR

*Xujabekov Umidjon, Xujanova Munisa*

STARTAPLAR VA VENCHUR KAPITAL: HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI ..... 50-55

*Xursanova Fotima*

ENTERPRISE UZBEKISTAN AND THE TRANSPLANTATION OF ENGLISH CONTRACT LAW:  
A NEW FRONTIER FOR COMMON LAW IN CENTRAL ASIA ..... 56-63

---

*Article / Original Paper***ILK O'RTA ASRLARDA XORAZM VA TURK XOQONLIGI MUNOSABATLARI  
TARIXSHUNOSLIGI****Ozodova Go'zalxon Ahmedovna**

Ma'mun universiteti, Tarix fakulteti magistranti

Email: [gozalxonozododa474@gmail.com](mailto:gozalxonozododa474@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ilk o'rta asrlar (V–VIII asrlar) Xorazm va Turk xoqonligi o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning tarixshunoslik tahlili kompleks tarzda amalga oshirilgan. Tadqiqotda muammoning o'rganilish darajasi xronologik bosqichlar va milliy ilmiy an'analar kesimida tasniflanib, birlamchi manbalar (xitoy yilnomalari, arab-fors geografik adabiyoti, runiform va so'g'd epigrafikasi, numizmatika), XIX–XX asr rus va Yevropa sharqshunosligi, sovet arxeologiya maktabi, zamonaviy G'arb turkologiyasi hamda mustaqillik davri o'zbek tarixshunosligi qiyosiy-tahliliy usulda ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, Turk xoqonligi, ilk o'rta asrlar, tarixshunoslik, manbashunoslik, Markaziy Osiyo, So'g'd, vassallik, suzerenitet, Buyuk ipak yo'li, numizmatika, arxeogenetika.

---

**HISTORIOGRAPHY OF THE RELATIONS BETWEEN KHWARAZM AND THE  
TÜRK KHAGANATE IN THE EARLY MIDDLE AGES****Ozodova Go'zalxon Ahmedovna**

Master's student, Faculty of History, Mamun University

**Annotation.** This article provides a comprehensive historiographical analysis of the political, economic, and cultural relations between Khwarazm and the Türk Khaganate during the early medieval period (5th–8th centuries). The study classifies the degree of scholarly inquiry into the subject according to chronological stages and national academic traditions, examining through a comparative-analytical method the primary sources (Chinese dynastic annals, Arabic-Persian geographical literature, Runic and Sogdian epigraphy, and numismatics), nineteenth- and twentieth-century Russian and European Oriental studies, the Soviet archaeological school, contemporary Western Turkology, and the Uzbek historiography of the independence period. The article generalizes the principal scholarly debates concerning Khwarazm's political and legal status within the Khaganate system, identifies the existing historiographical lacunae, and substantiates the priority directions for future research.

**Keywords:** Khwarazm, Türk Khaganate, early Middle Ages, historiography, source studies, Central Asia, Sogdiana, vassalage, suzerainty, Great Silk Road, numismatics, archaeogenetics.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i6v2y2026/n07>**Kirish**

Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida Xorazm va Turk xoqonligi o'rtasidagi munosabatlar alohida o'rin tutadi. Milodiy V asrning ikkinchi yarmidan VIII asr boshlarigacha bo'lgan bu davr mintaqada kuchlar muvozanatining keskin o'zgarishi, yangi siyosiy tuzilmalarning yuzaga kelishi va mintaqaviy savdo tizimining tubdan qayta shakllanishi bilan tavsiflanadi. Amudaryo quyi havzasida joylashgan Xorazm eramizdan avvalgi I ming yillikdan buyon mustaqil davlatchilik an'analarini saqlab kelgan o'troq dehqonchilik sivilizatsiyasining yirik markazi edi. Turk xoqonligi esa 552-yilda Bumin xoqon tomonidan asos solinib, qisqa muddat ichida Sharqiy Yevropadan Manchjuriyagacha cho'zilgan ulkan hududlarni o'z

nazoratiga oldi. Ikki davlat o'rtasidagi harbiy, diplomatik, savdo va madaniy aloqalar ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixining muhim o'zagini tashkil etadi.

### **1. Birlamchi manbalar tarixshunosligi**

**1.1. Xitoy yilnomalari.** Xorazm va Turk xoqonligi munosabatlarini o'rganishda xitoy sulola yilnomalari eng muhim birlamchi manbalar sirasiga kiradi. «Suy shu» (636-yil) , «Tang shu» va «Juy Tang shu» (945-yil) kabi asarlar G'arbiy o'lkalar, jumladan Xorazm («Huoxun» / «Huosimi») va turk xoqonlari haqida elchilik almashuvlari hamda iqtisodiy aloqalarga oid noyob ma'lumotlarni saqlagan. Xususan, «Suy shu»ning G'arbiy turklarga bag'ishlangan 84-bobi Xorazmning xoqonlikka nominal bo'ysunishi bilan birga ichki avtonomiyasini saqlab qolganini ko'rsatadi. Bu yilnomalarni Yevropa ilmiy muomalasiga to'liq tarjima va sharhlar bilan kiritish sharafi fransuz sharqshunosi E. Shavannga tegishli bo'lib, uning «Documents sur les Tou-kiue (Turcs) occidentaux» (1903) asari bu sohada uzoq vaqt etalon manba bo'lib qoldi [3]. Shu bilan birga xitoy manbalari Xorazm va turklarni Ko'k turk markaziga nisbatan ikkinchi darajali g'arbiy chekka sifatida tasvirlashi hamda joy nomlarining fonetik transkripsiyada berilishi tadqiqotchilar uchun jiddiy lokalizatsiya muammolarini keltirib chiqaradi.

**1.2. Arab-fors geografik va tarixiy adabiyoti.** Arab mualliflarining asarlari Xorazm haqidagi eng boy yozma manbalar hisoblanadi. Al-Ya'qubiy (vaf. 897), al-Balazuriy (vaf. 892), at-Tabariy (vaf. 923), al-Mas'udiy (vaf. 956) va Ibn Havqal (vaf. 988) mintaqaning arab fathi (712-yil) arafasidagi siyosiy tuzilishi to'g'risida qimmatli ma'lumot qoldirgan. At-Tabariyning «Tarixi ar-rusul va-l-muluk» asari Qutayba ibn Muslimning Xorazmni bosib olishini batafsil bayon etib, mahalliy aristokratiyaning xoqonlikka nisbatan mavqeini va istilodan oldingi kuchlar nisbatini oydinlashtiradi. Al-Mas'udiyning «Muruj az-zahab» [19] asarida esa Xorazmning qo'shni ko'chmanchi xalqlar bilan munosabatlariga doir ma'lumotlar jamlangan. Fors tilidagi anonim «Hudud ul-olam» (X asr) [18] mintaqaning siyosiy-geografik manzarasini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**1.3. Mahalliy ilmiy an'ana: Abu Rayhon Beruniy.** Manba bazasidagi tashqi kuzatuvchilik chegaralarini qisman bartaraf etuvchi yagona yirik mahalliy muallif — Abu Rayhon Beruniy (973–1048)dir. Uning «Al-osor ul-boqiya» [17] asari Xorazmning o'ziga xos taqvim, qadimiy sulolalari va madaniy an'analari haqida boshqa manbalarda uchramaydigan noyob ma'lumotlarni beradi. Beruniy ma'lumotlari Xorazmni mustaqil yozuvga, tarixiy xotiraga va o'ziga xos madaniy o'zlikka ega o'lka sifatida taqdim etishi bilan tarixshunoslik jihatdan alohida qimmatga ega.

**1.4. Epigrafik, numizmatik va arxeologik manbalar.** Yozma yodgorliklar bilan bir qatorda moddiy manbalar tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Runiform turk bitiklari — Kultegin (732-yil) [7], Bilga xoqon (735-yil) va Tonyuquq (716-yil) yodnomalari — xoqonlikning imperiya mafkurasi va g'arbiy viloyatlarga munosabatini ifodalovchi bevosita manbalardir. Mug' tog'i so'g'd arxivi (VIII asr boshi), Panjikent devoriy rasmlari va Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Qal'aliqir kabi yodgorliklardagi qazishmalar Xorazm va turk dunyosi o'rtasidagi savdo hamda diplomatik aloqalarni moddiy dalillar bilan to'ldiradi. Xorazm numizmatikasi, ayniqsa B.I. Vaynberg tomonidan tahlil qilingan tangalar korpusi [18], mahalliy hukmdorlar ikonografiyasi va unvonlar tizimida turkiy ta'sir izlarini aniqlash imkonini beradi.

### **2. Rus va Yevropa sharqshunosligining shakllanishi (XIX – XX asr boshi)**

Muammoning ilmiy jihatdan o'rganilishi XIX asrda rus va Yevropa olimlarining sa'y-harakatlari bilan boshlandi. Bu bosqichda tadqiqotlarning asosiy vazifasi manbalarni aniqlash,

nashr etish va tarjima qilishdan iborat edi. Fransuz sharqshunosi J.-T. Reno 1845-yilda arab geograflarining Xorazmga oid ma'lumotlarini tizimlashtirib chop etdi; nemis olimi Yu. Klaprot (Klaproth) G'arbiy turk xoqonligiga doir xitoy manbalarini Yevropa faniga tanitdi. Peterburg Fanlar akademiyasida V.V. Grigoryev, N.I. Veselovskiy va P.I. Lerx Xorazm manbalari tarjimasi va tahlili bilan shug'ullandilar.

Ushbu davr tarixshunosligining cho'qqisi — akademik V.V. Bartold (1869–1930) ijodidir. Uning «Turkiston» [1] asari Markaziy Osiyo tarixini ilmiy o'rganishda metodologik inqilob yasadi. Bartold arab va fors manbalarini chuqur matnshunoslik tahlilidan o'tkazib, Xorazmning ilk o'rta asrlardagi siyosiy tarixi, xoqonlik bilan munosabatlari va arab fathi masalalarini izchil yoritdi [4]. Uning xulosalari, jumladan Xorazmning nisbiy mustaqilligi haqidagi qarashi, keyingi yuz yillik tadqiqotlar uchun nazariy tayanch nuqtasi bo'lib qoldi.

### 3. Sovet tarixshunoslik maktabi

Sovet davri tarixshunosligi muammoni rasman marksistik formatsion nazariya doirasida talqin qilgan bo'lsa-da, aynan shu davrda Xorazm bo'yicha manbashunoslik va arxeologiya misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (1937–1960) mintaqaning moddiy madaniyatini tubdan o'zgartiruvchi kashfiyotlar qildi. Tolstovning «Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi izlaridan» (1948) [10] va «Oks va Yaksart qadimiy daltalari bo'ylab» (1962) [11] asarlari Xorazmning ko'chmanchi xalqlar, jumladan turk qabilalari bilan aloqalarini arxeologik asosda tahlil qildi. Formatsion talqin ustuvorligiga qaramay, Tolstov to'plagan faktologik baza bugun ham o'z qiymatini saqlab kelmoqda.

Bu yo'nalishni Yu.A. Zadneprovskiy, M.E. Masson, B.V. Andrianov, shuningdek so'g'd va Xorazm san'ati hamda me'morchiligini o'rgangan L.I. Albaum, G.A. Pugachenkova va E.V. Rtveladzelar davom ettirdilar. A.N. Bernshtam (1910–1956) esa turk xoqonligini kompleks o'rgangan yirik olim sifatida ko'chmanchi va o'troq sivilizatsiyalarni qarama-qarshi qo'yish o'rniga ularning o'zaro aloqasi kontekstida tahlil qildi [2] — bu o'sha davr uchun nisbatan yangilikchi yondashuv edi.

L.N. Gumilyov (1912–1992) o'zining bahsli «passionarlik» nazariyasi orqali xoqonlik tarixini keng tarixiy-geografik kontekstda talqin qildi; uning «Qadimgi turklar» (1967) [6] asari Xorazmning xoqonlik tizimidagi o'rnini ham muhokama qiladi, garchi metodologiyasi keyinchalik jiddiy tanqidga uchragan bo'lsa-da. Davrning yakunlovchi yirik tadqiqoti sifatida S.G. Klyashtorniy va T.I. Sultanovning «Yevrosiyo dashtlari davlatlari va xalqlari» asarini alohida ta'kidlash lozim, unda turk-xorazm munosabatlari keng manbaviy asosda umumlashtirilgan.

### 4. G'arb turkologiyasi va zamonaviy xalqaro tadqiqotlar

G'arb tarixshunosligida muammo, qoida tariqasida, keng Markaziy Osiyo yoki turkiy xalqlar tarixi doirasida yoritildi. D. Sinor (1916–2011) muharrirligidagi «The Cambridge History of Early Inner Asia» (1990) [8] xoqonlikni yaxlit tizim sifatida tahlil qilib, uning g'arbiy chekka hududlardagi ta'sir mexanizmlarini ochib berdi. P.B. Golden «An Introduction to the History of the Turkic Peoples» (1992) [4] asarida Xorazm-xoqonlik munosabatlarini «yasaq» — o'lpon to'lashga asoslangan vassallik tizimi sifatida talqin qildi. K.I. Bekvit esa «Empires of the Silk Road» (2009) da o'zining «karvon imperiyasi» nazariyasi orqali Xorazmni Ipak yo'li savdo tizimining muhim bo'g'ini sifatida ko'rib, munosabatlarni savdo-diplomatiya kontekstida

qayta talqin qildi. K.E. Bosvortning sulolaviy tarixga oid ishlari [13] esa Xorazmning islomgacha bo'lgan davrini keyingi bosqichlar kontekstida tushunishga xizmat qiladi.

So'nggi o'n yilliklarda muammo so'g'dshunoslik bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. N. Sims-Williams tomonidan amalga oshirilgan so'g'd hujjatlarining yangi nashr va tarjimalari [9] Xorazm va turk amaldorlari o'rtasidagi bevosita yozishmalarga oid noyob dalillarni fanga kiritdi. F. Grenetning Panjikent va Samarqand devoriy rasmlariga oid tadqiqotlari [23] VI–VIII asrlar siyosiy dinamikasini, jumladan turk zodagonlarining so'g'd san'atidagi aksini ochib berdi. E. de la Vaissièrening «Sogdian Traders» (2005) [13] asari savdo tarmoqlarini, J.K. Skaffning «Sui-Tang China and Its Turko-Mongol Neighbors» (2012) [25] esa o'troq-ko'chmanchi munosabatlarning institutsional jihatlarini yangicha yoritdi. Yevropa Ittifoqi moliyalashtirgan «ERC Sogdians» loyihasi (2016–2022) bu yo'nalishni yangi epigrafik va arxeologik materiallar bilan boyitdi.

**Xitoy va yapon tarixshunosligi** ham muhim hissa qo'shdi. Cen Zhongmian, Lin Gan va Chen Yinke yilnomalar asosida G'arbiy turk tizimini tikladilar; Rong Xinjiang [24] so'g'd koloniyalari va Xitoy–Markaziy Osiyo aloqalarini o'rganib, muammoga bilvosita yorug'lik soldi. Yapon olimi Yoshida Yutaka va hamkasblari so'g'd yozuvlarini qayta nashr etib, Xorazmga oid yangi hujjatlarni aniqladilar. Bu maktablar kuchli manbashunoslik an'anasi bilan ajralib tursa-da, mahalliy Xorazm manbalari va arxeologiyasiga ko'pincha yetarli e'tibor bermaydi.

### **5. Mustaqillik davri o'zbek tarixshunosligi**

1991-yilda mustaqillikka erishilgach, milliy tarixni qayta baholash jarayoni boshlandi va bu Xorazm-xoqonlik munosabatlarini o'rganishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Formatsion metodologiyadan voz kechilib, davlatchilik an'analari yangi nazariy nuqtai nazardan tadqiq etishga intilish kuchaydi. A. Asqarov, E.V. Rtveladze, Sh.S. Kamoliddinov, Yu.F. Buryakov va B.D. Kochnev sovet davri arxeologik ma'lumotlarini qayta ko'rib chiqib, yangi talqinlar taklif etdilar; ko'p jildli «O'zbekiston tarixi» esa umumlashtiruvchi akademik asar sifatida muhim o'rin egalladi.

Mavzuning tor ixtisoslashgan tahlili M. Rajapovning Afrig'iylar sulolasi tarixshunosligiga bag'ishlangan tadqiqotlarida [18,19,20,21] yangi bosqichga ko'tarildi. Tadqiqotchi milliy va xorijiy materiallarni qiyoslab, Afrig'iylarning xoqonlik tarkibidagi siyosiy-huquqiy maqomi masalasi maxsus o'rganilmaganligini asoslaydi. J.K. Skaff va G'. Boboyorov qarashlariga tayangan holda, u Xorazm Afrig'iylarini xoqonlik tarkibida muayyan siyosiy mustaqillikni saqlab qolgan kuchli vassallardan biri sifatida ta'riflaydi: xoqonlik mahalliy sulolaning ichki boshqaruviga to'liq aralashmagan, buning evaziga sodiqlik va o'lpon majburiyati o'rnatilgan. Rajapovning ishlari Afrig'iylar va xoqonlik munosabatlarini tarixshunoslik nuqtai nazaridan qayta baholash hamda Xorazmning ilk o'rta asrlar siyosiy tarixidagi o'rnini aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi bosqichda X. Hasanov hamda yosh tadqiqotchilarning dissertatsiya va maqolalari Xorazmning xoqonlik tizimidagi huquqiy maqomi, savdo yo'llari va elchilik aloqalarining alohida jihatlarini o'rganmoqda. G'. Xo'jayev va hamkasblari Qo'yqirilganqal'a va boshqa yodgorliklarda olib borgan qazishmalar Xorazmda turk zodagonlar qatlamining mavjudligi va mahalliy madaniyat bilan sintezini moddiy dalillar bilan asoslashga qaratilgan. Bu izlanishlar tobora ko'proq rus, fransuz va yapon olimlari bilan xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgani milliy tarixshunoslikning bir tomonlama yopilib qolishining oldini olmoqda.



## 6. Asosiy ilmiy munozaralar va tarixshunoslik muammolari

**Xorazmning siyosiy-huquqiy maqomi.** Tarixshunoslikning markaziy munozarali masalasi — Xorazmning xoqonlikka nisbatan maqomidir. Birinchi yondashuv (Gumilyov va bir qator sovet olimlari) xoqonlikning Xorazm ustidan qat'iy nazoratini yoqlasa, ikkinchisi (Bartold, Tolstov) Xorazmning keng ichki avtonomiyasini ta'kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotchilar bu qutblanishdan qochib, «murakkab vassallik» yoki «yumshoq suzerenitet» tushunchalaridan foydalanmoqda. Hozirgi kunda taxminan 560–700-yillarda Xorazm G'arbiy Turk xoqonligining nominal oliy hokimiyatini tan olgan, biroq ichki siyosiy tuzilishini saqlab qolgan, degan ilmiy konsensus shakllanib bormoqda.

Barcha asosiy yozma manbalarning Xorazmdan tashqarida yaratilganligi va tashqi nuqtayi nazarni ifodalashi tizimli muammo bo'lib qolmoqda. Bu bo'shliqni qoplashda arxeologik manbalar va numizmatika hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: Vaynberg tahlil qilgan tangalar mahalliy hukmdorlar maqomi va unvonlar tizimidagi turkiy ta'sirni ko'rsatadi.

**Iqtisodiy munosabatlar.** Keyingi o'n yilliklarda Xorazmning xoqonlik nazoratidagi Ipak yo'li tizimidagi o'rni alohida o'rganilmoqda. A. Naymark va boshqa tadqiqotchilar tranzit savdo, chorva mahsulotlari va g'arbiy yo'nalishdagi tijorat aloqalarining siyosiy ittifoqlardan kam bo'lmagan ahamiyatga ega bo'lganini ta'kidlaydilar.

**Yangi metodologiyalar.** GIS texnologiyalari va kosmik suratlar qadimiy kanallar, qo'rg'onlar va savdo yo'llarini qayta tiklash imkonini bermoqda; paleoqlim tadqiqotlari IV–VIII asrlardagi iqlim o'zgarishlarining migratsion jarayonlarga ta'sirini ochmoqda. 2020–2026-yillarda chop etilgan arxeogenetik ishlar turk migratsiyasi bilan bog'liq demografik o'zgarishlarni aniqlagan bo'lsa-da, genetik ma'lumotlarni tarixiy manbalar bilan uyg'unlashtirish muammosi hali to'liq hal etilmagan.

### Xulosa

Ikki asrdan ortiq davom etgan tadqiqotlar natijasida Xorazm va Turk xoqonligi munosabatlari tarixshunosligi boy ilmiy an'anaga aylandi: XIX asr Yevropa sharqshunosligida boshlangan izlanishlar sovet arxeologiya maktabi orqali chuqurlashib, mustaqillik davri o'zbek tarixshunosligi va zamonaviy xalqaro tadqiqotlarda yangi bosqichga ko'tarildi. Tarixiy tahlil, arxeologiya, numizmatika, tilshunoslik va genetikani birlashtiruvchi ko'p qirrali metodologiya hamda milliy maktablar o'rtasidagi dialog bu sohani sezilarli darajada boyitdi.

Shu bilan birga tahlil bir qator tarixshunoslik bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatadi. Birinchidan, Xorazm nuqtayi nazaridan yaratilgan mahalliy manbalar deyarli yo'q va bu kamchilik yangi epigrafik topilmalarni izlashni taqozo etadi. Ikkinchidan, xoqonlik va Xorazm o'rtasidagi huquqiy munosabatlar tizimi — yasaq, vassal majburiyatlari, ma'muriy tartib — hali to'liq aniqlanmagan. Uchinchidan, savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar va ayollar hayotidagi o'zgarishlar bu kontekstda deyarli o'rganilmagan. To'rtinchidan, xoqonlik davrida Xorazmda zardushtiylik va boshqa diniy an'analarning evolyutsiyasi kengroq tadqiqni talab qiladi.

Kelajak tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat: arxeologik qazishma ma'lumotlarini yozma manbalar bilan kompleks tahlil qilish; Xorazm tangalarining to'liq korpusini yaratish; so'g'd va Xorazm yozuvidagi yangi topilmalarni o'rganish; arxeogenetik tadqiqotlarni kengaytirish; hamda xalqaro hamkorlik asosida ko'p tilli manbalar korpusini shakllantirish. Aynan o'zbek, rus, xitoy, G'arb va yapon ilmiy an'alarini birlashtiruvchi integrativ yondashuvigina Xorazm va Turk xoqonligi munosabatlarining to'liq va ishonchli ilmiy manzarasini yaratish imkonini beradi. Bu sohadagi izlanishlar nafaqat o'zbek

milliy tarixi, balki butun Markaziy Osiyo va Yevrosiyo tarixining o'troq-ko'chmanchi munosabatlari hamda Ipak yo'li siyosiy iqtisodiyotiga oid keng masalalariga ham yorug'lik soladi.

### Adabiyotlar/Литература/References

1. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. 2-nashr. – Moskva: Nauka, 1963. – 760 b.
2. Bernshtam A.N. Ocherk istorii gunnov. – Leningrad: LGU, 1951. – 256 b.
3. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turcs) occidentaux. – Paris, 1903.
4. Golden P.B. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. – Wiesbaden: Harrassowitz, 1992. – 483 p.
5. Grenet F. Regional interaction in Central Asia and NW India in the Kidarite and Hephthalite periods // Indo-Iranian Languages and Peoples. – Oxford, 2003. – P. 203–224.
6. Gumilyov L.N. Drevnie tyurki. – Moskva: Nauka, 1967. – 504 b.
7. Klyashtorniy S.G., Sultanov T.I. Gosudarstva i narodi Evraziyskix stepey. 2-nashr. – Sankt-Peterburg, 2004.
8. Sinor D. (ed.) The Cambridge History of Early Inner Asia. – Cambridge: CUP, 1990. – 518 p.
9. Sims-Williams N. The Sogdian Inscriptions of Ladakh // Antiquities of Northern Pakistan. – Mainz, 1992. – Vol. 2. – P. 151–163.
10. Tolstov S.P. Po sledam drevnexorezmiyskoy civilizatsii. – Moskva: AN SSSR, 1948.
11. Tolstov S.P. Po drevnim delam Oksa i Yaksarta. – Moskva: Nauka, 1962.
12. Vaynberg B.I. Moneti drevnego Xorezma. – Moskva: Nauka, 1977.
13. de la Vaissière E. Sogdian Traders: A History. – Leiden: Brill, 2005. – 368 p.
14. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqishi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
15. Rtveladze E.V. Velikiy shyolkoviy put. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
16. Kamoliddinov Sh.S. O'rta asrlar Movarounnahr tarixi. – Toshkent: Fan, 2006.
17. Ражапов, М., 2024. Труд Беруни «Осор ул-бакия» является важным источником для изучения истории эпохи афригов. Library, 1, pp.122-125.
18. Rajapov, Mardonbek. "Afrig'iylar sulolasi zamonaviy tadqiqotlarda: Yondashuvlar va muhim qarashlar." Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси 3, no. 4 (2024): 48-51.
19. Rajapov, M., 2025. AFRIG 'IYLAR SULOLASI DAVRI TARIXSHUNOSLIGI (XIX–XXI asrning 20 yillaridagi tadqiqotlar tahlili).
20. Rajapov, Mardonbek. "The study of the economic and social life of Khorezm during the Afrighid period (a historiographical analysis)." Uchinchi renessans yosh olimlari: zamonaviy vazifalar, innovatsiya va istiqbol» xalqaro ilmiyamaliy anjuman tўplami (2024): 424-428.
21. Rajapov, M. (2024). AFRIG'IYLAR SULOLASI TARIXINING TURK TILLI TADQIQOTLARDA YORITILISHI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(1S), 23-26.
22. Rajapov, M. (2024). Approaches and Perspectives in the Study of the Afrighid Dynasty Period in Foreign Historiography. Miasto Przyszłości, 52, 235-239.
23. Grenet F., Riboud P. A Reflection of the Hephthalite Empire: The Biographical Narrative in the Reliefs of the Tomb of the Sabao Wirkak // Bulletin of the Asia Institute. – 2003. – Vol. 17. – P. 133–143.
24. Stark S. Türken und Sogder in der frühmittelalterlichen Steppe // Zwischen Ost und West. – Mainz, 2006.
25. Skaff J.K. Sui-Tang China and Its Turko-Mongol Neighbors. – Oxford: OUP, 2012.



# HUMANSIENCES.UZ

*№ 6 (2)-2026*

**INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI**

**JOURNAL OF HUMANITIES**

**ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**INSONSHUNOSLIK FANLARI** elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)